

**AYOLLAR USTKI KIYIMI PLASHINING ISHLANISHI VA UNING ODAM  
GAVDASIDAGI MUHIM O'RNI.**

*O'zbekiston Respublika Oliy Talim fan innovatsiyalar vazirligi  
Namangan To'qimachilik Sanoati Inistituti "Yengil sanoat mahsulotlarini  
konsturuksiyalash va texnologiyasi" kafedrasida 15 d 21-guruh talabasi.  
Abdujalilova Mavluda Qo'shaqboy qizi*

**Annotatsiya**

Moda chek chegara bilmaydigan muhim bir yo'nalish hisoblanadi. Ayniqsa hozirgi kundagi Ayollar hamda Erkaklar kiyimlarida buni yaqqol misolini korishimiz mumkin. Ayollar ustki kiyimlariga songi yillarda talab juda ham kuchaygan. Har tomonlama qulayligi ishlanishi funksiyalari kengligi sababli xalq ehtiyojlaridan qolmayapdi. Ayollar plashi ham bundan mustasno emas, bu turdagi kiyim tipaviy va notipaviy qomat egalariga birdek mos kelaveradigan kiyim turi hisoblanadi. Ayollar plashida barcha bo'laklar, korset taqilmalar, molniya taqilmalari, qo'shimcha aksessuarlar o'z o'rnini topgan desak mubolag'a bolmaydi. Eng muhimi hozirgi kunda xalq ehtiyojlariga birdek manzur kelib ularning gardiroblarini bezamoqda.

**Kirish**

Respublikamizda so'ngi yillarda Yengil sanoatning to'qimachilik texnologiyasi, tikuv-trikotaj sohasiga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Quvonarli jihati shundaki kundan kunga Yengil sanoat sohasi boyicha yangi yangi qonunlar, qarorlar ishlab chiqilmoqda. Bu soha boyicha Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich o'zalarining muhim qarorlarini soha vakillariga tadbiiq etdi. Eng avvalo bu sohaning kelgusidagi yutuqlarini xalq manfaatlar uchun yetarli darajada muhim ahamiyat kasb etishini aytib o'tdilar. Iqtisodiyotni bu tarzda rivojlanishi, davlatimizning yuksalishi albatta shunday sohalar orqali amalga oshirilishi bag'oyatda quvonarli holat shu sababli sohaning mohir kishilari uchun katta katta sarmoyalar, mablag'lar ajratilganligini malum qildilar. Yengil sanoat ishlab chiqarish sohasi dastavval birinchi navbatta davlatimiz ehtiyojlarini nafaqat chet davlatlar uchun ham bizning davlatimiz hom ashyo hamda kiyim assortmentslar bazasi ekanligini va shu tariqa iqtisodiyotning eng choqqi nuqtasiga chiqishini takidlab o'tdilar. Hozirgi vaqtga kelib O'zbek yengil sanoat aksiyadorlik jamiyati zamonaviy texnika bilan taminlaydigan korxonalar soni 300 dan ziyod ekanligini va ushbu korxonalar to'qimachilik, tikuvchilik, trikotaj va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarib uni ommaga tadbiiq etib kelmoqda. Albatta biror assortments yaratish uchun uning hususiyati muhim ahamiyat kasb etadi, negaki materialning hususiyati deformatsiyaga chidamli yoki chidamsiz ekanligi tikuvchilik sanoatida eng kerakli manbaalardan biri ekanligi yaqqol isbotini korsatadi. Tikuvchilik

sanoati juda keng tarmoqlangan bolib unda barcha detallar muhim hisoblanib kichik kichik elementlarga ham ahamiyat berilib o'tiladi. O'z navbatida sohada faoliyat yuritayotgan soha vakillari har tomonklama malakali bolishlarini talab qiladi. Har bitta detaldagi barcha operatsiyalar sinchklab tekshirilmasa mahsulotning sifati uning natijasi qoniqarli chiqmasligi mumkin. Misol uchun biror assortmentsni yarim tayyor mahsulotdan, tayyor mahsulot bolishiga qadar bilgan jarayon, unga ketgan vaqt sarfi shunga o'xshash elementar holatalar katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Eng avvalo insoda hozirgi kundagi yetishib chiqayotgan kadrlarimizga shu sohaga qiziqish bolishi lozim, shu masalani biz birinchi o'ringa qoyishimiz va ularda qiziqsh uyg'otishimiz kerak.

Ayollar juda ham nozik hilqat egalari hisoblanadi ularning nazaridan hech nima qochib qutilmaydi. Ularda shunday ulug' fazilatlar mujassamlashganki hattoki harid qilgan assortmentsni yani kiyimning barcha detallariga sinchklab ahamiyat berishadi. Ular uchun birinchi navbatda kiyimning estetik korinishi muhim hisoblanadi, shuning uchun doimo ular dekaratsiyaga hamda kombinatsiyaga etibor berishadi. Shuning uchun ularning kiyimidagi barcha operatsiyalar noziklik bilan amalga oshiriladi. Ayollar ustki kiyimi o'z navbatida juda teran manoga ega hisoblanib undagi har bitta detal juda katta energiya bilan ishlanishi talab etiladi.

Ayollarni ustki kiyimlar turi juda kop hisoblanib ulardan eng uziga insonni jalb etuvchisi bu- Ayollar Plashi hisoblanadi.

Plash bu- moda olamining shunchaki bir taklifi emas balki, unda elagantlilik va butun olam uslubining mohirona uyg'unligini o'zida namoyon qiladi. Ayollar plashi tikish davomida 40 dan ziyod operatsiyalar amalga oshiriladi. Ayollar plashi asosan kuz hamda bahor mavsumi uchun moljallangan ustki kiyim hisoblanadi. Yomg'irli mavsum kelishi bilan plashga ehtiyoj kuchayadi, negaki yomg'irli mavsumda har qanday ayol uchun yangi uslubdagi plashlarga ehtiyoj sezadi. Bu mavsumda eng ommalashgani to'g'ri keng fasondagi plashlar urfda bolib ularda ayollar o'zlarini komfortni yani qulay his etishadi ergonomik korsatkichi esa o'z o'zidan yuqori o'ringa kotariladi. Plashda yengillik va qulaylik silueti modellarning deyarli barchasida yelka chizig'idan boshlab keng bichim ko'rinishiga ega hisoblanadi. Oddiylik va qulaylik bu yengil ustki kiyim plashda yangi mavsumbop korinish unda yuksak did egalari ekanligini yaqqol namunasi bolib korinadi. Plashlarning rangiga to'xtaladigan bolsak oq, jigarrang va barcha turdagi ochiq ranglar assortmentsga birdek kork bag'ishlab turadi. Asosiy gazlamalari esa paxta tolali, ipakli fay, aralash zig'ir tolali, har hil rangdagi suniiy charmlar va boshqalar birdek qollanilaveradi. Hozirgi paytda plashlik gazlamalar assortmentsi quyidagi guruhlarga bolinadi; yarim jun ipli, viskoza plyonka qoplamali, ipli plyonka qoplamali, kapron ipli. Plashlarda qoshimcha detallar yuqori vazifani bajaradi va dekaratsiya hosil qiladi.